

Bundan tashqari O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish masalalarini o'rganish orqali quyidagi xulosa va takliflarni keltirish mumkin.

Birinchidan, O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirishda makroiqtisodiy barqarorlik, korporativ tuzilmalarda korporativ boshqaruv, investorlarning huquqiy himoyasi, xususiy kapital oqimi kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ikkinchidan, fond bozorining rivojlanishi iqtisodiy o'sish bilan o'zaro bog'liq ekanligini ta'kidlashimiz lozim. Bunda iqtisodiyotning rivojlanishi fond bozorini rivojlantirishga va aksincha, fond bozorining rivojlanishi iqtisodiyotni rivojlantirishga katta hissa qo'shishini inobatga olish lozim.

Uchinchidan, O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirishda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan daromadlilikni inobatga olgan holda aksiyalar va obligatsiyalarni samarali moliyaviy instrumentlarga aylantirish hamda ushbu qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini moliyalashtirish shakllari sifatida foydalanilishi zarur.

To'rtinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi ishtirokini kengaytirish maqsadida mahalliy fond bozori uchun yangi instrumentlardan, xususan, islom qimmatli qog'ozlaridan foydalanish zarur. Bu fond bozorida capital aylanmasini oshirishga, aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'larini jalb qilishga yordam beradi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Sh.M.Mirziyoyev *Fond bozorini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bayonoti.* 2019-yil 7-oktyabr. <http://xs.uz/post/fond-bozorini-rivojlantirish-masalalari-muhokama-qilindi>.

2. Sh.M.Mirziyoyev. "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.13.04.2021 PF-6207.

3. Sh.M.Mirziyoyev. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.28.01.2022 PF-60.

4. X.Sh.Tillayev. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiyalar faoliyatini takomillashtirish.2018. [www.wc.tseu.uz](http://www.wc.tseu.uz)

### **XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'RTASIDAGI IQTISODIY MUNOSABATLARNING INSTITUTSIONAL JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

**Sh.Sh. Yovqochev -**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

Hozirgi davrda institutsional o'zgarishlar ko'plab yangi tizim va institutlarni joriy etishda hamda barqaror o'sish sur'atlariga erishishda ko'maklashmoqda. Shu bilan bir qatorda, mazkur tuzilmaviy siljishlar va institutsional o'zgarishlar, o'z navbatida milliy iqtisodiyotning transformatsiyalashuv jarayoni uchun shart-sharoitlar yaratmoqda.

Milliy iqtisodiyotdagi tuzilmaviy siljishlar va o'zgarishlar singari, mamlakatimizning xalqaro moliya tashkilotlari bilan o'zaro barqaror hamkorligini muvozanatlashgan va tizimli takomillashtirishda institutsional islohotlarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Mazkur islohotlar o'zaro hamkorlikning institutsional muhiti sifat ko'rsatkichlarini yanada yuksaltirishga yo'naltirilgan. Bu esa o'z navbatida, barqaror milliy iqtisodiyot salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan institutsional me'yorlarni qayta ko'rib chiqish bilan birga, ularni yanada takomillashtirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, oldin mavjud bo'lgan institutsional mexanizmlarni yangilash, ularning bir-biri bilan o'zaro yaqinligini kuchaytirish, ular orasida vujudga kelgan bo'shliqlarni o'rganish muhim. Xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini institutsional jihatlarini takomillashtirishning ayrim konseptual jihatlarini ishlab chiqishda qator olimlarning ilmiy yondashuvlariga tayanish mumkin.

Djozef Y. Stiglits bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlarini boshidan kechirayotgan mamlakatlar, birinchi navbatda, huquqiy va institutsional islohotlarni amalga oshirgan holda bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tishi kerakligini ta'kidlagan. [1] Uning ilmiy qarashlari negizida, iqtisodiy rivojlanish darajasi past mamlakatlarning kapital bozorni liberallashtirishdagi xavflar va risklar nazarda tutilganligini aytish mumkin.

D.A. Ushakov Rossiyaning iqtisodiy barqarorligi va eng yirik Shimoliy Amerika xalqaro moliya institutlari kreditlari o'rtasidagi aloqani asoslab berdi va federal darajada "Tashqi iqtisodiy faoliyat va tashqi qarz majburiyatlarini hal qilish bo'yicha strategik markaz" ni yaratishni taklif qilganligi o'zaro hamkrolikning insitutsional jihatlarini takomillashtirishga qaratilganligi bilan izohlanadi. [2]

V.M. Kuznetsov ilmiy ishlarida xalqaro moliya insitutlari moliya resurslaridan samarali foydalanish uchun samaradorlik auditini doimiy olib borish ta'kidlangan. [3]

M.G. Gulaliyev ilmiy tadqiqotlarida xalqaro moliya insitutlari a'zo-mamlakatlar bilan o'zining boshlang'ich hamkorlik xususiyatlarini:

- 1) mamlakatning qonunchiligi xalqaro moliya institutlari manfaatlariga to'g'ri kelishi;
- 2) xalqaro moliya institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan qulay muhitning shakllanishi;
- 3) mamlakatga kiritilayotgan investitsiyalar, infratuzilma, resurslar va ishchi kuchi xom ashyo sektorida mujassamlashishi xulosa qilingan. [4]

R.Z. Yuldashev xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda amalga oshirilayotgan loyihalar samaradorligini oshirishda aynan loyihalar monitoringi lozimligini ta'kidlagan. [5] Bu esa, o'z navbatda hamkorlikning ilmiy-texnik institutsional asoslarini takomillashtirishni talab etadi.


Yangilanayotgan O'zbekiston Respublikasidagi tub islohotlar doirasida xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlik doirasidagi institutsional islohotlarda iqtisodiy siyosat trayektoriyasi maqsad, vazifalari, ayrim instrument va mexanizmlarini yangilash lozim. Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning: "... biz, avvalo, chetdan kredit va sarmoyalar olib kelish bo'yicha samarali tizim yaratishimiz, har bir kreditni aniq ishlatishni o'rganishimiz lozim. Bu masalani yetti o'lchab, bir marta kesadigan, oqibatini puxta o'ylab ish olib boradigan davr keldi" [6], deb ta'kidlagani xalqaro moliya institutlari tomonidan jalb etilayotgan mablag'larning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligini oshirishirishning barqaror tizimini ishlab chiqish dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Fikrimizcha, xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlikning institutsional jihatlarini takomillashtirish islohotlari quyidagi uchta guruh yo'nalishlari doirasida o'z aksini topishi lozim:

**1. Me'yoriy-huquqiy institutsional jihatlarini takomillashtirish.** Mamlakatimizda xalqaro moliya munosabatlari, xalqaro moliya institutlari faoliyati, davlat moliyaviy nazorati, tashqi qarzlar masalalarini nazorat qiluvchi, tartibga soluvchi qonuniy asoslar ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**2. Tashkiliy-tuzilmaviy institutsional jihatlarini takomillashtirish.** Mamlakatimizning xalqaro moliya institutlari bilan ikki tomonlama manfaatli aloqalari doirasidagi tashkiliy-tuzilmaviy institutsional jihatlarini takomillashtirish, o'zaro iqtisodiy hamkorlik salohiyatidan to'laqonli foydalanish imkoniyatini yaratadi.

**3. Ilmiy-texnik institutsional jihatlarini takomillashtirish.** O'zaro hamkorlik doirasida mamlakatning ilmiy-texnik jihatlarini iqtisodiy, institutsional islohotlar yordamida takomillashtirish zamonaviy davrning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bunda mamlakatda ilmiy-texnik yo'nalishda xizmat qiluvchi institutsional tuzilma birliklari tashkil etilishi lozim bo'ladi.



**1-rasm. Ilmiy-analitik tahlil faoliyatini rivojlantirish**

Umuman olganda, Xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlik mamlakatimizning istiqboli va taraqqiyotining salohiyati uchun: 1) iqtisodiyotda samarali yangi ish o'rinlarini yaratish; 2) aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni oshirish; 3) mamlakatimiz ichki bozorining rivojlanishi va Markaziy Osiyo sarhadlarida peshqadamlikka erishish; 4) shu bilan bir qatorda, mamlakat sanoatining yuqori natijalarga erishish maqsad etilgan.

Qolaversa, ikki tomonlama hamkorlik natijasida suv va eneregiyadan oqilona foydalanish hamda yuqori samaradorlikka erishish kutiladi, mamlakat infratuzilma ximatlaridan foydalanish imkoniyatlari oshadi, inson kapitalini rivojlantirish uchun ijtimoiy xizmatlar ko'lamiga kegayadi, qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligi oshadi, xususi sektor investitsiyalari (normativ islohot va soddalashtirish, davlat korxonlarini korporativ boshqarish va xususiylashtirish) rag'batlantirishi kabi imkoniyatlar ko'lamiga kegayadi. Shu bilan bir qatorda, Xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston Respublikasiga ko'rsatayotgan yordami, o'rta muddatda, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, davlat boshqaruvi va institutlarni mustahkamlash, mintaqaviy hamkorlik va integratsiyasini qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi yuqoridagilar jumlasidandir.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Joseph E. Stiglitz. *Globalization and its Discontents*. W.W. Norton & Company. New York London. 2002. –C. 140,220.
2. Ушаков Д.А. Развитие отношений Российской Федерации с Международным валютным фондом: Автореф. дис. канд. наук; Экономические науки: 08.00.14 / Моск. ун-т потреб, кооп. М.: 2000. - 24 с.
3. Кузнецов В. М. Механизмы повышения эффективности управления займами, предоставляемыми Российской Федерации международными финансовыми организациями: диссертация ... кандидата экономических наук: 08.00.10 / Кузнецов Виталий Михайлович; [Место защиты: Гос. науч.-исслед. ин-т систем. анализа Счёт. палаты РФ]. - Москва, 2009.- 104 с.: ил. РГБ ОД, 61 09-8/1298
4. Гюльалиев М.Г. Деятельность международных финансовых институтов в условиях глобализации // Вестник экономики, права и социологии, №. 2, 2013, -С.53.
5. Юлдашев Р. З. Повышение эффективности сотрудничества Республики Узбекистан с международными финансовыми институтами: Дис. канд. наук; Экономические науки; 08.00.09 / МИД РУз Университет мировой экономики и дипломатии. –Т.:2004. –132 с.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2018. – 80 b. (47 va 48-betlar).